

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING 8-SON YIG‘ILISHI
BAYONI**

Raislik qiluvchi:

**Ma’muriy masalalar
bo‘yicha birinchi prorektor
D.A.Nasimov**

Bayonni yurituvchi:

Protokol kotibiyati
bo‘limi bosh mutaxassisi
A.Izbasarova

2025-yil 26-sentabr

soat: 15.00

229-xona

Qatnashuvchilar: D.A.Nasimov, R.J.Hoffmann, T.Q.Zou, A.Gadayev, A.To‘xtamishov, N.Xushvaqto‘v, N.Abduvaxidova, S.Matlabov, F.Nurov, N.Mansurova, T.Sultanov, T.Akramova, N.Turdiyeva.

Taklif etilganlar: V.Yusupova, M.Yorqulov, O.Boynazarov, N.Raximova, X.Ibragimov, Sh.Nosirov.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari.

Birinchi prorektor prof. D.A.Nasimovning axboroti.

2. Universitet Senati a‘zolari tarkibiga o‘zgarishlar kiritish va tasdiqlash to‘g‘risida.

Birinchi prorektor prof. D.Nasimovning axboroti.

3. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida.

Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi yetakchi mutaxassisi V.Yusupovanning axboroti.

4. **Har xil masalalar.**

4.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida stajyor o‘qituvchilari Xolboyev Jamshid va Musinova Mexrangizlarni assistent o‘qituvchi lavozimiga tavsiya etish haqida.

“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida mudiri N. Raximovanning axboroti.

4.2. “Turizm” kafedrası assistent o‘qituvchilari D.Umurzakova, Ye.Salnikova va Sh.Narkulova katta o‘qituvchi lavozimiga va stajyor o‘qituvchilari A.Raximov, M.Safarov, Sh.Sharipov, O.Inoyatov, E.Solliyeva, Sh.Mustayevalarni assistent o‘qituvchi lavozimiga tavsiya etish haqida.

“Turizm” kafedrası mudiri X.Ibragimovning axboroti.

4.3. “Tarix va madaniy meros” kafedrası stajyor o‘qituvchisi Mohigul Shodiqulovani assistent o‘qituvchi lavozimiga tavsiya etish haqida.

“Tarix va madaniy meros” kafedrası mudiri O.Boynazarovning axboroti.

4.4. 2025-yil 4-chorak uchun universitet Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga o‘qishga qabul qilingan 4 nafar mustaqil izlanuvchilarning (PhD) hamda 3 nafar mustaqil izlanuvchilarning (DSc) yakka tartibdagi ish rejalari, nazariy-metodologik dasturlari, dissertatsiya ishi mavzulari va tadqiqotchilarga birlashtiriladigan ilmiy rahbarlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.5. 2025-yil 2-chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Yang Jiening PhD dissertatsiya ishi mavzusini tasdiqlash va unga ilmiy rahbarlar birlashtirish to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.6. 08.00.11-Marketing ixtisosligi bo‘yicha 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi Muxammadiyeva Nodira Xusanovnaning ixtisoslik shifrini 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bilan birlashtirish to‘g‘risida

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.7. Universitetda 2025-yil Scopus va Science Direct tizimi axborotlaridan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilarning foydalanishi va ushbu tizimlarga kirgan jurnallarda maqolalar chop etganliklari uchun rag‘batlantirish to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.8. Universitetda 2025-yilda ilmiy daraja va unvon olgan professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirish to‘g‘risida.

Protokol kotibiyati bosh mutaxassisi A.Izbasarovning axboroti.

4.9. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası PhD, dotsent B.Janzakov tomonidan tayyorlagan “Milliy turistik xizmatlar bozorida ekonometrik modellardan foydalanib turistik biznes samaradorligini oshirish va turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini ta’minlashni takomillashtirish” nomli monografiyasini hamda “Turizm”kafedrası o‘qituvchisi M.Amriddinova tomonidan tayyorlagan “Turizm sohasini rivojlantirishda umumiy ovqatlanish korxonalar resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish” nomli monografiyasini nashrga tavsiya etish haqida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

Eshitildi: Birinchi prorektor D.Nasimovning Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Turizm qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to'g'risida axboroti eshitildi.

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmoni mazmun-mohiyatini va ahamiyatini tushuntirish va ijro intizomini mustahkamlash to'g'risida quyidagicha keltirilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda kuzatiladigan kamchiliklar:

1. Ishni to'g'ri tashkil etmaslik;
2. Ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni barvaqt kirishmaslik;
3. Ishlab chiqiladigan nazorat rejalarida topshiriqlarni to'liq qamrab olmaslik;
4. Faqatgina ijro muddati yaqin bo'lgan topshiriqlar bilan ishlash;
5. Ayrim rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati talab darajasida emasligi.

2. Ijrochilar faoliyatida mavjud tizimli muammolar bartaraf etish yuzasidan takliflar:

1. Topshiriq bo'yicha muammoli masalalar birinchi rahbarlar darajasida muhokama qilinib, bevosita hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

2. Topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash hamda uzluksiz "texnologik zanjir"ni tizimli yo'lga qo'yish.

II. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-sentabrdagi 3-sonli Hay'at majlisi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlanishiga shaxsan bo'lim rahbarlari va kafedra mudirlari mas'ul.

1. Oliy, kasbiy va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida 2025/2026-o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida.

2. Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va istiqboldagi vazifalar to'g'risida.

3. Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini ochish to'g'risida.

4. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik va bitiruvchilar bandligi to'g'risida.

Kun tartibidagi 1-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Birinchi prorektor D.A.Nasimovning Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Turizm qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2-MASALA

Eshitildi: Birinchi prorektor D.Nasimovning universitet Senati a'zolari tarkibiga o'zgarishlar kiritish va tasdiqlash to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Senat a'zolarini universitet Senat tarkibiga o'zgartirish kiritish xususidagi takliflar bilan tanishtirdi. Senat tarkibiga O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulov, "Tarix va madaniy meros" kafedrasini mudiri O.F.Boynazarov, "Turizm" kafedrasini mudiri X.I.Ibragimov, "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasini mudiri N.A.Raximova universitet Senati tarkibiga kiritish uchun ochiq ovoz berish yo'li bilan saylashni taklif qildi. Senat a'zolari bergan ovoz natijalariga ko'ra O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i Muhammadmurod Yorqulov, "Tarix va madaniy meros" kafedrasini mudiri O.F.Boynazarov, "Turizm" kafedrasini mudiri X.I.Ibragimov, "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasini mudiri N.A.Raximova universitet Senatining yangi a'zolari etib saylandi.

Kun tartibidagi 2-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Birinchi prorektor prof. D.Nasimovning Universitet Senati a'zolari tarkibiga o'zgarishlar kiritish va tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Senatning yangi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3-MASALA

Eshitildi: Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo'limi yetakchi mutaxassisi V.Yusupovning 2025-yil yanvar-sentabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to'g'risida axboroti eshitildi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari qarorlari Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy-ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Samarqand viloyat hokimligi hamda turli tashkilotlardan jami 3443 ta hujjat kelib tushgan, shundan 3206 ta hujjat ijrosi o'z vaqtida ta'minlangan. Hozirda 175 ta topshiriq bajarilmoqda, 52 ta topshiriq ijrosi muddati o'tib bajarilgan, 3 ta topshiriq bajarilmagan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9 yanvardagi 04-12-08-xdfu-sonli Yo'l xaritasining 4.2, 2.1,2.2, 7.2, 7.2, 7.3, 7.4-bandlar ijrosi bajarilmagan.

Universitetga jismoniy va yuridik shaxslardan 2025-yil sentabr oyi holatiga 6 ta murojaat kelib tushgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan 1 ta murojaat kelib tushgan.

Xoldorov Jaxongir Baxtiyarovich tomonidan Abdivoxitov Farrux Ilxomovichning (universitet xodimi) kredit to‘lovlari to‘g‘risida. Tushuntirish berildi.

Universitet “edo.ijro.uz” hamda elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar 5 ta. Kelib tushgan barcha murojaat barchasi ijrosi o‘z vaqtida ta‘minlandi.

Kun tartibidagi 3-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi yetakchi mutaxassisi V.Yusupovaning 2025-yil yanvar-sentabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari (T.Sultanov, T.Akramova, O. Boynazarov, X. Ibragimov, N.Raximova):

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Viloyat hokimligi hamda turli tashkilot va idoralardan kelgan barcha turdagi topshiriqlar ijrosi “edo.ijro.uz” elektron platformasidan foydalangan holda belgilangan muddatlarga qat‘iy rioya qilgan holda sifatli bajarilishini ta‘minlash vazifasi topshirilsin.

“edo.ijro.uz” tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddat ichida bajarmaslik yoki muddati o‘tib bajargan mas‘ul ijrochilarga nisbatan universitetning 2024-yil 9-yanvardagi 4-sonli buyrug‘i asosida intizomiy jazo qo‘llanilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishi ta‘minlasin. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya‘ni o‘z vaqtida ijrosi ta‘minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas‘ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishini ta‘minlasin.

4. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo'lgan ya'ni o'z vaqtida ijrosi ta'minlamagan yoki muddatini o'tkazib bajargan mas'ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug'iga asosan intizomiy jazo qo'llanilsin.

4. HAR XIL MASALALAR

Eshitildi:

4.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri N. Raximovning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini stajyor o'qituvchilari Xolboyev Jamshid va Musinova Mexrangizlarni assistent o'qituvchi lavozimiga tavsiya etish to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Professional ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi boshlig'i, “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi Xolboyev Jamshid Abduxaliqovich 1987-yilda Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida tug'ilgan, ma'lumoti oliy.

J.Xolboyev bo'lim boshlig'i sifatida mehnat intizomiga rioya qilib, rahbariyat topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishga harakat qiladi.

Xolboyev Jamshid Abduxaliqovichning 2025-yilda 3 ta xalqaro va mahalliy jurnallardagi ilmiy maqolalari nashr etilgan:

1. A.A.Odilov, J.A.Xolboyev. “Fostering a culture of quality: piloting selfassessment in Uzbekistan's VET institutions”. – I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Milliy malaka tizimini rivojlantirishdagi joriy holat va istiqbolli vazifalar”, 2025-yil, may. – 16 bet.

2. K.M. Ibodov, J.A. Xolboyev. “Xizmatlar sohasida innovatsion muhitni yaratishning dolzarb masalalari”. – Iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 6-son. – 687 bet. ISSN 2992-8982.

3. J.A. Xolboyev. Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari”. Muhandislik va iqtisodiyot jurnali, 6-son – 239 bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmonning 1-ilovasi bilan “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga 10 ta texnikum birlashtirilgan hamda texnikumlarga o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim sifatini oshirish hamda ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash vazifalari yuklatilgan bo'lib, mazkur vazifalar ijrosi bo'lim boshlig'i J.Xolboyev boshchiligidagi Professional ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi tomonidan bajarib borilmoqda.

Xolboyev Jamshid Abduxaliqovichning kasb-hunar ta'limi sohasidagi bir necha yillik boy tajribasi bugunga kelib o'z ishining ustasi darajasiga yetishishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda Xolboyev Jamshid olgan barcha bilim va tajribalarini ish

jarayoniga yo'naltirib, Universitet huzuridagi texnikumlarda mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash yo'lida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Kun tartibidagi 4.1.-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasida stajyor o'qituvchilari Xolboyev Jamshid va Musinova Mexrangizlarni assistent o'qituvchilikka tavsiya qilish haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasida stajyor o'qituvchilari Xolboyev Jamshid va Musinova Mexrangizlarni assistent o'qituvchi lavozimiga tavsiya etilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Xodimlar bilan ishlash (HR) bo'limi boshlig'i A.Xolbayev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.2. "Turizm" kafedrasida mudiri X.Ibragimovning "Turizm" kafedrasida assistent o'qituvchilari D.Umurzakova, Ye.Salnikova va Sh.Narkulova katta o'qituvchi lavozimiga va stajyor o'qituvchilari A.Raximov, M.Safarov, Sh.Sharipov, O.Inoyatov, E.Soliyeva, Sh.Mustayevalarni assistent o'qituvchilikka tavsiya etish to'g'risidagi axboroti eshitildi.

1. Umurzakova Dilnoza Egamberdievna Jizzax viloyati G'allaorol tumanida 1987-yil 3-noyabrda tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti oliy, 2013-2015 yillarda Samarqand davlat universitetining "Iqtisodiy nazariya" yo'nalishi magistratura bosqichini bitirgan. 2011-2013 yillarda Samarqand viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida kabinet mudiri, 2013-2015 yillarda Samarqand qishloq xo'jaligi instituti qoshidagi akademik litseyda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 2018-yil 1-dekabrda boshlab "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Marketing bo'limida muhandis sifatida o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunda universitetning Xodimlar bilan ishlash (HR) bo'limi yetakchi mutaxassisi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda universitetning 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati bo'yicha mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy faoliyatini olib bormoqda. Uning yigirmaga yaqin maqola va tezislari chop etilgan. "Ijtimoiy mehnat munosabatlarining mohiyati va nazariy asoslari", "Xizmat ko'rsatish faoliyatini samarali tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati", "Savdo xizmati sohasida mehnatga haq to'lash tizimining xususiyatlari", "Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining xizmat ko'rsatish tizimidagi o'rni va iqtisodiyotning rivojlanishidagi roli", "Samarqand viloyati kommunal xo'jalik tizimidagi muammolarning yechimi",

“Main features of training in the connection of an innovative economy”, “Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida resurslar samaradorligini oshirish yo‘llari”, “Maktabgacha ta‘lim xizmatlari tizimini takomillashtirish yo‘llari”, “Iqtisodiyotni raqamlashtirishning mehnat bozoriga ta‘siri”, “Maktabgacha ta‘lim muassasalari hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari”, “Maktabgacha ta‘lim xizmatlarini rivojlantirishda xorij tajribasi”, “Mehnat bozorini raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari”, “To‘siqsiz turizmning xususiyatlari va uni rivojlantirish omillari” va “Theoretical Basis and Socio-Economic Significance of Barrier-Free Tourism Development” kabilar shular jumlasidandir. Shu bilan birgalikda 2024-yil “Tarmoqlar iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasi hammualliflar bilan chop etgan.

Umurzakova Dilnoza berilgan topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida bajaradi, o‘z malakasi va ilmiy saviyasini oshirish ustida qat‘iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi.

2. Salnikova Yelena Aleksandrovna Samarqand viloyati Samarqand shahrida 1990 yil 22 sentabrda tug‘ilgan, millati rus, ma‘lumoti oliy, 2022 yilda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros universitetining magistratura bosqichida “Menejment (turizm, mehmonxona va ommaviy tadbirlar)” mutaxassisligini bitirgan. 2011-2015 yillarda Samarqand shahar 35- o‘rta ta‘lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi, 2015-2022 yillarda MChJ “Orient Voyages” turistik firmasi turoperatori bo‘lib faoliyat yuritgan, 2022- yil 5-sentabrdan “Turizm menejment” kafedrasida stajyor-o‘qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda, hozirgi kunda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Turizm” kafedراسi assistant-o‘qituvchisi.

Hozirgi kunda universitetning 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati bo‘yicha mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy faoliyatini olib bormoqda. Uning yigirmadan ortiq maqola va tezislari chop etilgan. Ularning ichida “A need for expanded diversification of niche tourism offerings in Uzbekistan: A focus on advancing economic and organizational approaches to sustainable tourism development”; “Development of tourism in rural areas of the Samarkand region: Problems and prospects”; “Tourist demand and preferences for sustainable tourism in Samarkand”; “Модели устойчивого развития туризма: Международный опыт и возможности адаптации в Узбекистане”, “Environmental sustainability in tourism: Strategies for protecting natural resources and reducing negative impacts”; “Tourism services in the regions”, “Sustainable tourism role to balance economic development and environmental stewardship”; “Regional tourism strategies as a tool for sustainable development: The experience of Samarkand”; “Exploring innovative approaches in Muslim-friendly tourism” kabilar shu jumlasidandir. Shu bilan birgalikda, 2024-2025 yillar davomida xalqaro Scopus bazasidagi ilmiy jurnallarda maqolalar chop etgan : “Development of logistics technology: An analysis based on the 4.0 era”; “Forecasting tourism services exports for sustainable development: A case study of Uzbekistan”, 2025-yil “Introduction to tourism and hospitality” darsligini hammualliflar bilan chop etgan.

Salnikova Yelena Aleksandrovna universitet jamoasi hamda talabalar o'rtasida hurmat e'tiborga ega bo'lib, u o'z malakasi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib kelmoqda. Universitetda va xalqaro miqyosda olib borilayotgan barcha tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Salnikova Yelena Aleksandrovna universitet mehnat jamoasidagi yosh va malakali mutaxassis sifatida samarali mehnat qilib kelayotganligini hisobga olib, uni ilmiy sohada yetuk olim sifatida shakllanishiga ishonch bildiraman.

3. Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich 1997-yil 25-fevralda Samarqand viloyatining Payariq tumanida tug'ilgan.

2012/2015-yillar Samarqand shahridagi Bank kollejini "Bank ishi" yo'nalishi bo'yicha tamomlagan.

2016/2020-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis institutida "Turizm" fakultetining "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishida o'qigan.

2018-yil avgust oyida Samarqand viloyati 526-safarbarlikka chaqiruv rezervi batalyonida harbiy xizmatni o'tagan.

2020/2022-yillar Samarqand Davlat universiteti hamda Rossiya Federatsiyasining Shimoliy Kavkaz federal universitetining qo'shma loyihasi asosida Iqtisodiyot fakultetining "Inson resurslarini boshqarish" yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichida tahsil olgan.

2023-yil fevraldan – 2024-yil may oyigacha "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida Ilmiy tadqiqotlar bo'limida yetakchi mutaxassis lavozimida ishlagan.

2023-yil noyabr oyidan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida Turizm kafedrasida stajyor-o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

2024-yil may oyidan hozirgi kunga qadar "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida Xalqaro hamkorlik bo'limida Turk dunyosi bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis lavozimida ishlamoqda.

Ushbu universitetda olib borayotgan faoliyatim davomida erishgan yutuqlari va amalga oshirilgan ishlari quyidagicha:

2023-yil universitetda bo'lib o'tgan Shanhay hamkorlik tashkiloti mamlakatlarning turizm sanoatining rivojlanishi mavzusidagi qo'shma ilmiy amaliy konferensiyadagi sertifikat.

2023-yil 10-12 may kunlari universitetda bo'lib o'tgan Ipak yo'li xalqlarining tarix, madaniy meros va turizm imkoniyatlari mavzusidagi 1-xalqaro konferensiyadagi sertifikat.

2023-yil 16-18 may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruv kengashi direktorlarining 32-yillik uchrashuvini tashkil etishdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy

ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Abduraxmonov Ibrohim Yo'lchiyevich tomonidan minnatdorchilik sertifikat.

2023-yil 22-iyunda Samarqand viloyatida o'tkazilgan "Focus on tourism and Creative economy" turizm kongressida faol ishtiroki uchun sertifikat.

2023-yil 16-20 oktabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Jahon Turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasini tashkil etishdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi raisi Shadiyev Umid Rustamovich tomonidan minnatdorchilik sertifikat.

2024-yil 19-sentabr kuni universitetda bo'lib o'tgan "Barqaror turizm menejmenti va O'zbekistonda Jahon merosi obyektlari bo'yicha Akademik muloqot konferensiyasi"ni "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nomidan tashkil etish va yuqori saviyada o'tkazishdagi o'rni uchun minnatdorchilik sertifikat.

2025-yil 11-sentabr kuni "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetidagi bo'lib o'tgan "Erasmus+" loyihasi doirasida 4-muvofiqlashtiruvchi yig'ilishini tashkil etish va qatnashganlik uchun minnatdorchilik sertifikat.

4. Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li Samarqand viloyati Samarqand Urgut tumanida 1995-yil 4-yanvarda tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti oliy, 2020-2022 yillarda Samarqand shahri "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetini "Tourism management" yo'nalishi magistratura bosqichini bitirgan. 2021-yil 14-yanvardan boshlab "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Axborot texnologiyalari" bo'limga yetakchi mutaxassisi sifatida o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunda universitetning "Raqamli ta'lim texnologiyalari va masofaviy ta'lim markazi Masofaviy ta'lim bo'yicha yetakchi mutaxassisi" lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda universitetning 08.00.17 – "Turizm va mehmonxona faoliyati" bo'yicha mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy faoliyatini olib bormoqda. Uning o'nga yaqin maqola va tezislari chop etilgan. Biznes hamkorligining asosi sifatida ishonch: Markaziy Osiyo mamlakatlarida rivojlanishning institutsional shart-sharoitlari Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi: konsepsiyalar, omillar va siyosiy mexanizmlar, Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari, Raqamli moliya tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari, O'zbekistonning turizm va mehmondo'stlik sohasida barqaror rivojlanish uchun institutsional islohotlar, O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasida inson kapitalining o'rni, Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyot va ESG transformatsiyasi: muammolar va istiqbollari, Pandemiya davrida aqlli turizm va innovatsion rivojlanish yo'nalishlari" kabilar shular jumlasidandir. Xorijiy tajriba: 2022-yilda Qatar (ACCOR Group), 2023-yilda Qozog'iston, 2024-yilda Xitoy (BISU, Pekin), 2025-yilda Shanxay Business School yozgi maktabida stajirovka o'tgan.

Sharipov Shahriyor berilgan topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida bajaradi, o‘z malakasi va ilmiy saviyasini oshirish ustida qat’iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi.

5. Saliyeva Yekaterina Sergeevna, Samarqand viloyati, Samarqand shahrida 1991-yil 10-oktabrda tug‘ilgan. Millati — rus. Ma’lumoti — oliy. 2010–2014-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutida tahsil olgan. 2019–2022-yillarda Qozon Federal universitetida “Turizm” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olib, magistr darajasini olgan. 2019–2023-yillar davomida “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universitetida dastlab edvayzer, keyinchalik marketing departamenti mutaxassisi lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2023-yildan hozirgacha shu universitetda stajyor-o‘qituvchi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Hozirda Turizm qo‘mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining 08.00.17 – “Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha tayanch-doktoranti sifatida ilmiy faoliyat olib bormoqda. Unga tegishli yigirmaga yaqin ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Shular qatoriga “Characteristics of Gastronomic Brands of the Republic of Uzbekistan and Their Place in the Tourism and Hospitality Market”, “Tourist destinations with gastronomic potential in the Republic of Uzbekistan”, «Развитие гастрономического туризма как одного из движущих факторов увеличения турпотока в Узбекистане», “Halal certification process: problems and some solutions”, «Место и роль гастрономического туризма в развитии экономического сектора в Узбекистане», «Основные тенденции развития смарт туризма в условиях цифровой экономики в республике Узбекистан», «Стратегический обзор гастрономических брендов Узбекистана: их характеристика и влияние на рынок туризма и гостеприимства», «Современные тенденции и перспективы развития международного туризма», «Анализ статистического исследования рынка гастрономического туризма в Республике Узбекистан», «Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в Республике Узбекистан», «Шёлковый путь как культурный и туристский маршрут: от истории к современности», «Gastronomic tourism as a driving force for the development of the economy in Uzbekistan», «Роль гида в продвижении гастрономического туризма: влияние на национальный имидж и бренд дестинации», «Маркетинг устойчивого гастрономического туризма: ESG-коммуникации как магнит для эко-ориентированных путешественников», «Гастрономические фестивали как инструмент межкультурного диалога на Шёлковом пути», «Маркетинговое исследование возможностей развития гастрономического туризма в Республике Узбекистан (на примере Самаркандской области)», kabi ishlari kiradi.

Saliyeva Yekaterina bajarilgan vazifa va topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashadi, ishda jiddiylik va halollikni namoyon etadi. O‘z kasbiy malakasini oshirishga intiluvchi, fidoyi va tashabbuskor mutaxassis hisoblanadi.

6. Mustaeva Shohida Sa'dullayevna Samarqand viloyati, Samarqand shahrida 1992-yil 29-yanvarda tug'ilgan. Millati — o'zbek. Ma'lumoti — oliy. 2010/2014-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutida tahsil olgan. 2019/2022-yillarda Qozon federal universitetida "Turizm" yo'nalishi bo'yicha tahsil olib, magistr darajasini olgan. 2018/2023-yillar mobaynida "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universitetida matbuot kotibi lavozimida faoliyat yuritgan. 2023-yildan hozirgacha shu universitetda stajyor-o'qituvchi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Hozirda Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining 08.00.17 – "Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha tayanch-doktoranti sifatida ilmiy faoliyat olib bormoqda. Unga tegishli yigirmaga yaqin ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Shular qatoriga "Analysis of the demand for religious tours at the regional level in the Republic of Uzbekistan", "Features of pilgrimage tourism objects in the Republic of Uzbekistan", "Формирование анализа востребованности развития паломнического туризма в Республике Узбекистан", "Dynamics of halal tourism development in Uzbekistan", "Роль паломнического туризма в экономическом секторе Узбекистана: основные показатели и тенденции", "Влияние цифровых технологий на развитие туристского рынка в Узбекистане", "Исследование популярности паломнических туров на региональном уровне в Республике Узбекистан: анализ и динамика спроса", "Развитие туристической индустрии и сферы путешествий в современном мире", "Влияние паломнического туризма на экономику Узбекистана: главные показатели и текущие тенденции", "Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в Республике Узбекистан", "Международное сотрудничество в сфере экологии: успешные кейсы вдоль шёлкового пути", "The potential of pilgrimage tourism in Uzbekistan: development of a regional policy strategy", "Взаимодействие паломнического туризма, культурного наследия и туристско-экскурсионной деятельности: перспективы и направления развития", "Мобильные аудиогиды на священных маршрутах: потенциал цифровой интерпретации религиозного наследия", "Паломнический туризм как драйвер сохранения нематериального культурного наследия тюркского мира", "Формирование основных концептуальных направлений развития паломнического туризма в Республике Узбекистан с использованием эконометрических методов" kabi ishlari kiradi.

Mustaeva Shohida bajarilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashadi, ishda jiddiylik va halollikni namoyon etadi. Ilmiy izlanishlarga qiziqishi yuqori, o'z malakasini oshirishga intiluvchi faol mutaxassisdir.

7. Raximov Abror Zafarovich Samarqand viloyati Payariq tumani Baxrin qishlog'ida 1995-yil 10-iyun kuni tug'ilgan. Millati o'zbek, ma'lumoti oliy.

2015-2019-yillarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida “Dasturiy injiniring” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr bosqichini, shuningdek, 2019-2021-yillarda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida “Menejment(*xalqaro mehmondo‘stlik va turizm*)” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bosqichini tamomlagan.

2019-yildan hozirgi vaqtgacha “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Raqamli ta‘lim texnologiyalari va masofaviy ta‘lim markazida faoliyat yuritib kelmoqda. U o‘z faoliyati davomida ta‘lim jarayonini raqamlashtirish, masofaviy ta‘lim tizimini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishida samarali ishlar olib borgan. 2021-yildan boshlab “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Turizm menejmenti” kafedrasida stajyor-o‘qituvchi sifatida o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lib, hozirgi kunda universitetning “Turizm menejmenti” kafedrasida assistent-o‘qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, u Erasmus+ grant loyihasi ishtirokchisi bo‘lib, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish yo‘lida faol ishtirok etmoqda.

Raximov Abror Zafarovich o‘ziga yuklatilgan vazifalarni mas‘uliyat bilan bajaradi, mehnatsevar, intizomli va jamoada samarali ishlay oladigan xodimdir. U o‘z kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib boradi hamda universitet faoliyatida faol ishtirok etadi.

8. Safarov Muhammad Ne‘matilla o‘g‘li 1996-yil 5-fevralda Samarqand viloyati Samarqand shahrida, ziyolilar oilasida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma‘lumoti oliy.

2019-yil Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filialining “Kompyuter injiniring” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi tamomlagan.

2021-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universitetiga grant asosida magistraturaga o‘qishga qabul qilingan. Ushbu universitetning Raqamli texnologiyalar fakultetini 2023-yil tamomlagan.

Mehnat faoliyati 2019-yildan buyon "Ipak yo‘li" turizm va madaniy meros universitetida Raqamli ta‘lim texnologiyalari va masofaviy ta‘lim markazi bosh mutaxassisi hamda 2023-yildan stajyor-o‘qituvchi lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

Safarov Muhammad Ne‘matilla o‘g‘li tomonidan jami 4 ta ilmiy ish, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 3 ta shulardan 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda maqola va ma‘ruza tezislari nashr etilgan. Bundan tashqari Coursera platformasida Google IT Support online kursidan sertifikatga ega.

Safarov Muhammad Ne‘matilla o‘g‘li berilgan topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida bajaradi, o‘z malakasi va ilmiy saviyasini oshirish ustida qat‘iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi.

Kun tartibidagi 4.2.-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. "Turizm" kafedrası assistent o'qituvchilari D.Umurzakova, Ye.Salnikova va Sh.Narkulova katta o'qituvchi lavozimiga va stajyor o'qituvchilari A.Raximov, M.Safarov, Sh.Sharipov, O.Inoyatov, E.Soliyeva, Sh.Mustayevalarni assistent o'qituvchilikka tavsiya qilish haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Turizm" kafedrası assistent o'qituvchilari D.Umurzakova, Ye.Salnikova va Sh.Narkulova katta o'qituvchi lavozimiga va stajyor o'qituvchilari A.Raximov, M.Safarov, Sh.Sharipov, O.Inoyatov, E.Soliyeva, Sh.Mustayevalarni assistent o'qituvchi lavozimiga tavsiya etilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Xodimlar bilan ishlash (HR) bo'limi boshlig'i A.Xolbayev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.3. "Tarix va madaniy meros" kafedrası mudiri O.Boynazarovning "Tarix va madaniy meros" kafedrası stajyor o'qituvchisi Mohigul Shodiqulovani assistent o'qituvchi lavozimiga tavsiya etish to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Shodiqulova Mohigul Ulug'bekovna Samarqand viloyati Samarqand shahrida 1995-yil 27-yanvarda tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti oliy, 2021-2023 yillarda Samarqand shahri "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetini "Ziyorat turizmi" yo'nalishi magistratura bosqichini bitirgan. 2020-2025 yillarda Samarqand viloyati Samarqand shahri 21-umumta'lim o'rta maktabida ingliz tili o'qituvchisi, 2020-2021 yillarda Samarqanddagi "SamRois Tour" turistik firmasida tarjimon bo'lib ishlagan. 2023-yil 5-sentabrdan boshlab "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasida stajyor-o'qituvchi sifatida o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunda universitetning "Tarix va madaniy meros" kafedrasida stajyor-o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda universitetning 08.00.17 – "Turizm va mehmonxona faoliyati" bo'yicha mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy faoliyatini olib bormoqda. Uning o'nga yaqin maqola va tezislari chop etilgan. "Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni", "O'zbekistonda halol turizm konsepsiyalari", "Samarqand shahridagi turizm xizmatlari", "Samarqand shahridagi tarixiy obidalarning turizm industriyasi rivojlanishiga ta'siri", "Chet tillarni o'rganishda tinglash mahoratining ahamiyati", "Samarqand shahrida ko'p tashriflar oqimi va uni boshqarish", "O'zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishi va ahamiyati, Samarqand shahri misolida " kabilar shular jumlasidandir. Shu bilan

birgalikda 2025-yil TUBITAK Turkiya-O'zbekiston grant dasturi loyiha a'zolaridan biri.

Shodiqulova Mohigul berilgan topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida bajaradi, o'z malakasi va ilmiy saviyasini oshirish ustida qat'iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi.

Kun tartibidagi 4.3-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. "Tarix va madaniy meros" kafedrasida stajyor o'qituvchisi Mohigul Shodiqulovani assistent o'qituvchi lavozimiga tavsiya qilish haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Tarix va madaniy meros" kafedrasida stajyor o'qituvchisi Mohigul Shodiqulova assistent o'qituvchi lavozimiga tavsiya etilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Xodimlar bilan ishlash (HR) bo'limi boshlig'i A.Xolbayev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.4. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning 2025-yil 4-chorak uchun universitet Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilingan 4 nafar mustaqil izlanuvchilarning (PhD) hamda 3 nafar mustaqil izlanuvchilarning (DSc) yakka tartibdagi ish rejalari, nazariy-metodologik dasturlari, dissertatsiya ishi mavzulari va tadqiqotchilarga biriktiriladigan ilmiy rahbarlarni tasdiqlash to'g'risida axboroti eshitildi.

2025-yil 4-chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka (PhD, DSc) o'qishga 7 nafar talabgorlar o'qishga qabul qilinganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida"gi Nizomning 3-bobi 28-29-bandalariga muvofiq tadqiqotchilar tomonidan tanlangan dissertatsiya ishi mavzulari va ilmiy rahbarlari, tadqiqotchilarning yakka tartibdagi ish rejalari, nazariy metodologik dasturlari Kollegial organ qarori bilan tasdiqlanishi lozimligi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

2025-yil 4-chorak uchun Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilingan 8 nafar ilmiy izlanuvchilar tomonidan 2025-yil 25-sentabr holatiga ko'ra universitet Senatiga taqdim etilgan 7 nafar tadqiqotchilar tomonidan tanlangan dissertatsiya ishi mavzulari hamda ilmiy-rahbarlikka tavsiya etilgan professor-o'qituvchilar bilan birgalikda tayyorlagan dissertatsiya ishi mavzusini tanlash bo'yicha asosnomalar, yakka tartibdagi ish rejalari va nazariy-metodologik dasturlari hamda tadqiqotchilar biriktirilgan kafedra majlislari bayonnomalari o'rganilib chiqildi.

Kun tartibidagi 4.4-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1.1. Mustaqil izlanuvchilikka (PhD, DSc) o'qishga qabul qilingan ilmiy izlanuvchilarning yakka tartibdagi ish rejalari va nazariy-metodologik dasturlari "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida"gi Nizomning 3-bobi 28-29-bandalariga muvofiq talab darajasida tuzilganligini inobatga olgan holda tasdiqlandi deb hisoblansin.

1.2. 08.00.17-"Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha o'qishga qabul qilingan Nosirov Shuhrat Berdiqulovichning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "*Hududlarda madaniy turizmni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish usullari*" mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Raximov Xasan Abdusaitovich biriktirilsin.

1.3. 08.00.17-"Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha o'qishga qabul qilingan Raxmanov Jasur Ubaydulloyevichning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "*Turizm qishloqlari va mahallalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida)*" mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna biriktirilsin.

1.4. 08.00.17-"Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha o'qishga qabul qilingan Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'lining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "*Kreativ iqtisodiyot sharoitida hududlarga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish istiqbollari*" mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Ibadullayev Nurali Eshniyazovich biriktirilsin.

1.5. 08.00.17-"Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o'qishga qabul qilingan Abdurayimov Uktam Abdug'ani o'g'lining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "*Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida aholi bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari va tendensiyalari*" mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Raximov Xasan Abdusaitovich biriktirilsin.

1.6. 08.00.17-"Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (DSc) Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'lining DSc ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "*Hududlarda*

inklyuziv turizmni samarali rivojlantirishning metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor Safarov Bahodirxon Shahriyorovich biriktirilsin.

1.7. 08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (DSc) o‘qishga qabul qilingan Ibragimov Xusen Ismoilovichning DSc ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi *“Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish*” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Mansurova Nargiza Shamsidinovna biriktirilsin.

1.8. 08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (DSc) o‘qishga qabul qilingan Urunbayeva Yulduz Pirnazarovnaning DSc ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi *“O‘zbekistonda muzey turizmi xizmatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari*” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor Muxamedov Murod Muxamedovich biriktirilsin.

Eshitildi:

4.5. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning 2025-yil 2-chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Yang Jiening PhD dissertatsiya ishi mavzusini tasdiqlash va unga ilmiy rahbarlar biriktirish to‘g‘risida axboroti eshitildi.

Bugungi kunda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom hamda Shanxay Hamkorlik tashkilotining Iqtisodiyot va savdo akademiyasi bilan imzolangan xalqaro hamkorlik memorandumiga asosan xorijliklarni universitet Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida to‘lov-kontrakt shartnomasi asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilganligi va universitet rektorining 2024-yil 28-noyabrda 28-I/Ch-sonli buyrug‘i bilan o‘qishga qabul qilingan xitoylik mustaqil izlanuvchilar o‘zlarining PhD ilmiy darajasini olish uchun ilmiy izlanishlarini olib borayotganligi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tdi.

Xorijlik mustaqil izlanuvchilarni qabul buyrug‘iga ko‘ra 08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha Turizm kafedrasiga biriktirilgan ilmiy izlanuvchi Yang Jie tomonidan bajarilayotgan dissertatsiya ishi mavzusi va tadqiqotchiga biriktirilgan mahalliy va xorijlik ilmiy rahbarlar nomzodlari tadqiqotchi biriktirilgan kafedrada muhokamasidan o‘tkazilganligi ta’kidlandi va kafedra muhokamasi bayonnomasi Senat a’zolari tomonidan o‘rganib chiqildi.

Kun tartibidagi 4.5-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. 08.00.17-"Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o'qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Yang Jiening PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "*Samarkand va Si'an misolida-Omnikanalilik davrida Butunjahon madaniy merosi obyektlari hisoblangan qadimiy shaharlarda turizm oqimini monetizatsiyalash mexanizmlarini tadqiq qilish*" mavzusida tasdiqlansin.

2. Mahalliy ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori Safarov Bahodirxon Shahriyorovich hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor dotsent Tongqian Zou birlashtirilsin.

Eshitildi:

4.6 Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning 08.00.11-Marketing ixtisosligi bo'yicha 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi Muxammadiyeva Nodira Xusanovnaning ixtisoslik shifrini 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bilan birlashtirish to'g'risida axboroti eshitildi.

"Turizm" kafedrasida mustaqil izlanuvchisi Nodira Xusanovna Muhammadiyeva tomonidan tayyorlanayotgan "Hududiy marketing konsepsiyasini amalga oshirish orqali turizmni jadal rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlarining bajarilishi reja asosida amalga oshirilayotganligini hamda kafedra mustaqil izlanuvchisi Nodira Xusanovna Muhammadiyeva tomonidan tayyorlanayotgan "Hududiy marketing konsepsiyasini amalga oshirish orqali turizmni jadal rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi 08.00.17 – "Turizm va mehmonxona faoliyati" va 08.00.11 "Marketing" ixtisosliklari tutashligida ekanligi tadqiqotchi birlashtirilgan kafedrada muhokamadan o'tkazilib kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan bir ovozdan ma'qullanganligi va Turizm kafedrasining majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtirilganligi ta'kidlandi.

Kun tartibidagi 4.6-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Nodira Xusanovna Muhammadiyeva tomonidan tayyorlanayotgan "Hududiy marketing konsepsiyasini amalga oshirish orqali turizmni jadal rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlarining bajarilishi reja asosida amalga oshirilayotganligi e'tirof etilsin.

2. Mustaqil izlanuvchisi Nodira Xusanovna Muhammadiyeva tomonidan tayyorlanayotgan "Hududiy marketing konsepsiyasini amalga oshirish orqali

turizmni jadal rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishi 08.00.17 – “Turizm va mehmonxona faoliyati” va 08.00.11 “Marketing” ixtisosliklari tutashligida ekanligi ta’kidlansin.

Eshitildi:

4.7. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning universitetda 2025-yil Scopus va Web of Science tizimi axborotlaridan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilarning foydalanishi va ushbu tizimlarga kirgan jurnallarda maqolalar chop etganliklari uchun rag‘batlantirish to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Vasiylik kengashining 2022-yil 17-avgustdagi 3-sonli bayoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti professor-o‘qituvchilari hamda xodimlariga ustama mukofot va moddiy yordam berish to‘g‘risidagi Nizomning 3-bobi 15-bandining 5-xatboshida universitet professor-o‘qituvchilari hamda ishchi-xodimlariga xalqaro ilmiy texnik jurnallarda yakka muallif yoki ichki hammualliflikda maqola chop ettirganligi uchun bir martalik mukofot puli berilishi belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra xalqaro ilmiy-texnik jurnallarda yakka mualliflik yoki ichki hammualliflikda maqola chop ettirganligi uchun oylik maoshining 50% gacha bo‘lgan miqdorda (hammualliflikda bo‘lsa hammualliflik ulushi miqdorida, maqola chop etilgan jurnalning asli taqdim etilganda);

2025/2026-o‘quv yilida kafedralar kesimida faoliyat yuritgan quyidagi nomlari keltirilgan professor-o‘qituvchilarga mukofot puli berilishi to‘g‘risida:

I. “Tarix va madaniy meros” kafedrasida o‘qituvchisi Morteza Khanipourning Scopus bazasida indekslangan jurnallarda:

1. “Examining the Dalma culture in the northern Zagros of Iran: Insights from the excavation of the Belachak site” nomli maqolasi “*Archaeological Research in Asia*” Q1 jurnalida chop qilganligi uchun;

2. “Reflections of Neolithic Subsistence Changes in Lithic Industries: A Case Study of the Hormangan Site” nomli maqolasi “*Ancient Iranian Studies*” Q2 jurnalida chop qilganligi uchun.

Kun tartibidagi 4.7-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Sh.Mansurovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Tarix va madaniy meros” kafedrasida o‘qituvchisi Morteza Khanipourning Scopus bazasida indekslangan jurnallarda chop etilgan “Examining the Dalma culture in the northern Zagros of Iran: Insights from the excavation of the Belachak site” nomli maqolasi “*Archaeological Research in Asia*” Q1 jurnalida chop

qilganligi uchun 6 000 000 (olti million) so‘m miqdorida va “Reflections of Neolithic Subsistence Changes in Lithic Industries: A Case Study of the Hormangan Site” nomli maqolasi “*Ancient Iranian Studies*” Q2 jurnalida chop qilganligi uchun 5 000 000 (besh million) so‘m miqdorida universitetning byudjet va budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan, jami 11 000 000 (o‘n bir million) so‘m miqdorida moddiy rag‘batlantirilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N. Mansurova va Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z. Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.8. Protokol kotibiyati bosh mutaxassisi A.Izbasarovaning “Universitetda 2025-yilda ilmiy daraja va unvon olgan professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirish to‘g‘risida axboroti eshitildi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Vasiylik kengashining 2022-yil 17-avgustdagi 3-sonli bayoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti professor-o‘qituvchilari hamda xodimlariga ustama mukofot va moddiy yordam berish to‘g‘risidagi Nizomning 3-bobi 15-bandining 2-xatboshisida fan doktori (DSc) ilmiy darajasini himoya qilganlik uchun oylik lavozim maoshining ikki barobarigacha miqdorida hamda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilganlik uchun oylik lavozim maoshining bir barobarigacha miqdorida rag‘batlantirish belgilab qo‘yilganini ma’lum qildi.

Shuningdek, 2025-yil davomida universitet professor-o‘qituvchilaridan Mansurova Nargiza Shamsidinovna fan doktori (DSc) hamda Mirbabayeva Dilfuza Baxtiyorovna falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilganini ta’kidladi.

Kun tartibidagi 4.8-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Protokol kotibiyati bosh mutaxassisi A.Izbasarovaning universitetda 2025-yilda ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirish to‘g‘risida axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Mansurova Nargiza Shamsidinovnaga oylik lavozim maoshining bir baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi to‘lab berilsin.

3. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Mirbabayeva Dilfuzaga oylik lavozim maoshining bir baravari miqdorida bir martalik rag‘batlantirish to‘lovi to‘lab berilsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.9. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası PhD, dotsent B.Janzakov tomonidan tayyorlagan “Milliy turistik xizmatlar bozorida ekonometrik modellardan foydalanib turistik biznes samaradorligini oshirish va turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini ta‘minlashni takomillashtirish” nomli monografiyasini hamda “Turizm” kafedrası o‘qituvchisi M.Amriddinova tomonidan tayyorlagan “Turizm sohasini rivojlantirishda umumiy ovqatlanish korxonalar resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish” nomli monografiyasini nashrga tavsiya etish to‘g‘risida axboroti eshitildi.

“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası PhD, dotsent B.Janzakov tomonidan tayyorlagan monografiya O‘zbekiston milliy turizm bozorida ekonometrik modellardan foydalangan holda biznes samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish hamda turistlarga xizmat ko‘rsatishda yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslarini, raqobatbardosh xizmatlar darajasini baholash usullari hamda milliy turistik xizmatlar bozorida turistlarga yuqori sifatli va raqobatbardosh xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va respublikada ulardan foydalanish yo‘nalishlarini ochib berishga bag‘ishlangan.

“Turizm” kafedrası o‘qituvchisi M.Amriddinova tomonidan tayyorlagan monografiya “Turizm sohasini rivojlantirishda umumiy ovqatlanish korxonalar resurslarining samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish” mavzusiga bag‘ishlanib, unda umumiy ovqatlanish korxonalar faoliyatini takomillashtirishga doir nazariy, uslubiy va amaliy masalalar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot davomida xizmatlar samaradorligini oshirishga ta‘sir etuvchi omillar hamda “tashrif buyuruvchi turistlarning maqsadi va ularning ovqatlanish xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik” ilmiy asosda tahlil qilinib, muallif tomonidan mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatiga oid yangi ta‘rif taklif etilgan.

Shuningdek, ishda turizm sohasida turistlarni jalb etish, ularning ehtiyoj va xohishlarini aniqlash, iqtisodiy salohiyatni boshqarish mexanizmlari hamda samaradorlikni baholash mezonlari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan.

Monografiyada Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalar, xususan Gastronomik ko‘chadagi obyektlar misolida turistlarga xizmat ko‘rsatish darajasi, ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlari va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish uchun resurslarni boshqarish, xizmat sifatini yaxshilash va milliy taomlar assortimentini kengaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Monografiyaning yakuniy qismida esa umumiy ovqatlanish korxonalarini resurslari samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yoʻnalishlari taklif etilib, xizmat koʻrsatish faolligini oshirish, mijozlar tajribasini boyitish, marketing strategiyalarini modernizatsiya qilish hamda milliy gastronomik brendni rivojlantirish kabi ustuvor chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Umuman olganda, mazkur monografiya turizm sohasidagi umumiy ovqatlanish korxonalarining iqtisodiy va tashkiliy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni oʻz ichiga olgan boʻlib, u Oʻzbekistonning gastronomik turizmini rivojlantirishga muhim nazariy asos va amaliy yoʻnalish sifatida xizmat qiladi.

Monografiya matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

Monografiya nashrga tavsiya etish boʻyicha taqrizlari mavjud.

Kun tartibidagi 4.9-masala boʻyicha Senat aʼzolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar koʻrib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini PhD, dotsent B.Janzakov tomonidan tayyorlagan “Milliy turistik xizmatlar bozoridagi ekonometrik modellardan foydalanib turistik biznes samaradorligini oshirish va turistlarga koʻrsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini taʼminlashni takomillashtirish” nomli monografiyasi hamda “Turizm” kafedrasini oʻqituvchisi M.Amriddinova tomonidan tayyorlagan “Turizm sohasini rivojlantirishda umumiy ovqatlanish korxonalar resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish” nomli monografiyasi tasdiqlansin va “Ipak yoʻli” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan 20 donadan nashr etilishiga ruxsat berilsin.

2. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya boʻlimi boshligʻi Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot boʻlimi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnoma yurituvchi:

Protokol kotibiyati boʻlimi

bosh mutaxassisi

A.Izbasarova

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING DOIMIY A‘ZOLARI RO‘YXATI**

2025-yil 26-sentabr

soat: 15.00

229-xona

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi	Imzo
1.	prof. D.A.Nasimov	Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektor, Senat raisi o'rinbosari	
2.	prof. R.J.Hoffmann	O'quv ishlari bo'yicha prorektor	
3.	prof. T.Q.Zou	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor	
4.	A.M.Gadayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	
5.	A.Q.To'xtamishov	Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i	
6.	N.H.Xushvaqtov	Dekan	
7.	N.A.Abduvaxidova	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i	
8.	S.N.Matlabov	Kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi	
9.	F.J.Nurov	Ofis registrator bo'limi boshlig'i	

10.	N.Sh.Mansurova	Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i	
11.	T.I.Sultanov	“Tillar va global tadqiqotlar” kafedrası mudiri	
12.	M.X.Sidikova	“Tarix va madaniy meros” kafedrası mudiri	
13.	A.O.Odilov	“Turizm” kafedrası mudiri	
14.	T.K.Akramova	“Yozma va og‘zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrası mudiri	
15.	K.T.Mustayev	“Tarix va madaniy meros” kafedrası professori	
16.	A.A.Klykov	“Turizm” kafedrası dotsenti, (PhD)	
17.	N.M.Turdiyeva	“Yozma va og‘zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrası dotsent v.b., (PhD)	
18.	E.Zeytullayev	Talabalar parlamenti prezidenti	

*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros
xalqaro universiteti Senatining
2025-yil 26-sentabrdagi 8-son
yig‘ilish bayoniga 1-ilova*

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI
SENATINING DOIMIIY A‘ZOLARI RO‘YXATI**

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi	Imzo
1.	prof. D.A.Nasimov	Ma‘muriy masalalar bo‘yicha birinchi prorektor, Senat raisi o‘rinbosari	
2.	prof. R.J.Hoffmann	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor	
3.	prof. T.Q.Zou	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor	
4.	A.M.Gadayev	Ishlar boshqarmasi boshlig‘i	
5.	A.Q.To‘xtamishov	Ta‘lim sifatini ta‘minlash va akkreditatsiya bo‘limi boshlig‘i	
6.	N.H.Xushvaqtov	Dekan	
7.	N.A.Abduvaxidova	Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i	

8.	S.N.Matlabov	Kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi	
9.	F.J.Nurov	Registrator ofis bo'limi boshlig'i	
10.	M.Yorqulov	O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i	
11.	N.Sh.Mansurova	Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i	
12.	T.I.Sultanov	"Tillar va global tadqiqotlar" kafedrası mudiri	
13.	O.F.Boynazarov	"Tarix va madaniy meros" kafedrası mudiri	
14.	X.I.Ibragimov	"Turizm" kafedrası mudiri	
15.	T.K.Akramova	"Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrası mudiri	
16.	N.A.Raximova	"Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrası mudiri	
17.	N.M.Turdiyeva	"Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrası dotsent, (PhD)	
18.	VAKANT	Talabalar parlamenti prezidenti	